

**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/30.12.2019.GM.40.01.
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XALIYOROV XOLMUROD XALMIRZAYEVICH

**SHAUGAZ-KONDIR SOY ORALIG‘IDAGI MIS
MA‘DANLASHUVINING JOYLASHISH QONUNIYATI (SHARQIY
OLMALIQ TOG‘ KON HUDUDIDA)**

**04.00.02 – Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish
va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Xaliyorov Xolmurod Xalmirzaevich

Shaugaz-Kondir soy oralig‘idagi mis ma‘danlashuvining joylashish qonuniyati (Sharqiy Olmaliq tog‘ kon hududida)3

Халиёров Холмурод Халмирзаевич

Закономерности размещения медного оруденения между саями Шаугаз-Кандыр (Восточно-Алмалыкский горнорудный район) 19

Khaliyorov Kholmurod Khalmirzayevich

The spatial distribution law of copper mineralization in the Shaugaz-Kondir valley (Eastern Almalyk ore district).....37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....40

**“MINERAL RESURSLAR INSTITUTI” DM HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/30.12.2019.GM.40.01.
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XALIYOROV XOLMUROD XALMIRZAYEVICH

**SHAUGAZ-KONDIR SOY ORALIG‘IDAGI MIS
MA‘DANLASHUVINING JOYLASHISH QONUNIYATI (SHARQIY
OLMALIQ TOG‘ KON HUDUDIDA)**

**04.00.02 – Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish
va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo**

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/GM222 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ingeo.uz) va “ZiyoNet” axborot ta‘lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Razikov Odil Taxirdjanovich

geologiya-minerologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Movlanov Jaxongir Jo‘rabekovich

geologiya-mineralogiya fanlari doktori

Mirusmanov Mirvosit Agzamovich

geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ

Dissertatsiya himoyasi “Mineral resurslar instituti” DM huzuridagi DSc. 24.30.12.2019.GM.40.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “13” 11 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Tel.: (71) 209-08-93, e-mail: info@mridm.uz, gpnimr@exat.uz).

Dissertatsiya bilan “Mineral resurslar instituti” DMining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (342 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko‘chasi, 64-uy. Tel.: (71) 209-08-93).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “30” 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil “08” 10 dagi 23 raqamli reestr bayonnomasi)



M.U. Isoqov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d.

S.S. Sayitov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.-m.f.f.d. (PhD)

M.M. Pirnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi g.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo miqyosida mis o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra sanoatda ehtiyoj yuqori bo‘lgan asosiy metallardan biri ekanligi sababli uning konlarini qidirib topish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada innovatsion texnologiyalar va foydali qazilmalarni qidirishning zamonaviy usullari orqali mis ma‘danining hosil bo‘lish sharoitlari va joylashish qonuniyatlarini aniqlash muhim o‘rin tutadi. Ushbu ishlar o‘z navbatida sanoat ehtiyojini qoplashi mumkin bo‘lgan yangi mis konlarini aniqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida foydali qazilmalarning majmuaviy konlarini, turli ma‘dan-formatsion turlarini aniqlashga yo‘naltirilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, tarkibida sanoatbop mis ma‘danlarini o‘zida qamragan intruziv hosilalarni o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy va yuqori aniqlikka ega tahliliy usullardan foydalanib olib borilgan mineralogik-geokimyoviy tadqiqotlar mazkur jinslardagi asosiy va birga uchrovchi ma‘danlashuv istiqbolini ilmiy asoslashga imkoniyat yaratadi.

Respublikada misga istiqbolli yangi maydonlarni bashorat qilish va izlab topishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Natijada misga istiqbolli ko‘plab konlar (Yoshlik-I, Qizota-II) va istiqbolli maydonlar (Shenibek, Yong‘oqli, Saritosh) aniqlandi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “.....iqtisodiyot uchun zarur mineral xom ashyo bazasini kengaytirish.....”¹ vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, Olmaliq ma‘dan maydonidagi Shaugaz - Kondir soylar oralag‘idagi mis ma‘danlashuvini har tomonlama o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli farmonida, 2021-yil 21-apreldagi “Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va Respublika mineral-xom ashyo bazasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5083-son, 2020-yil 8-iyundagi “Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4740-son va 2022 yil 3 avgustdagi “Mahalliy mineral xomashyo resurslari asosida yuqori texnologik metallar ishlab chiqarishni tashkillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-343-sonli qarorlari hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning VIII “Yer to‘g‘risidagi fanlar” (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash) ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qurama tog‘ tizmasining shimoliy yon bag‘irlarini tizimli ravishda ko‘plab tadqiqotchilar, shu jumladan:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF – 60-son Farmoni.

S.F.Mashkovsev, B.N.Nasledov, A.S.Adelung, M.G.Kalabin, A.A.Petrenko, V.K.Dodin, Z.P.Artemov, Yu.S.Shixin, J.N.Kuznetsov, H.M.Abdullaev, I.H.Xamrabaev, N.P.Vasilkovskiy, I.M.Golovanov, V.A.Arapov, T.N.Dolimov, S.T.Badalov, T.Sh.Shoyoqubov, V.I.Rexarskiy, R.A.Musin, K.Urunbaev, I.B.Fyodorov, V.V.Neverov, E.D.Molchanov, N.N.Nizametdinxodjaev, A.A.Kulakov, F.I.Islomov, V.D.Guryanov, X.T.Tulyaganov, E.I.Nikolayeva, V.D.Lyashkevich, A.A.Kustarnikova, A.X.Turesebekov, I.N.Ganiyev, V.D.Soy, M.M.Pirnazarov, V.I.Vokal, A.V.Golovko, E.V.Ganiyeva va boshqa geologlar tomonidan o'rganilgan.

O'tgan-yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida hududning geologik tuzilishi chuqur o'rganilgan va bir qator oltin, kumush, qo'rg'oshin, rux, mis va boshqa konlar ochildi. Ammo hududda turli mavzudagi izlanishlar o'tkazilganligiga qaramasdan Qurama tog' tizmasining shimoliy-sharqiy qismida Shaugaz-Kondir soylar oralig'ida tarqalgan magmatik va metasomatik tog' jinslarida mis va boshqa elementlar minerallasuvning to'planish qonuniyatlari va mineralogik xususiyatlari to'liq o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Mineral resurslar instituti" DMning ilmiy-tadqiqot rejasining 1180-sonli "Sharqiy Olmaliq tog'-ma'danli hududining Shaugaz-Kondir soy daryolari oralig'idagi mis ma'danlari salohiyatini taftishli baholash" (2016-2019) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Olmaliq tog'-kon hududidagi Shaugaz-Kondir soylar oralig'idagi mis ma'danlashuvining joylashish qonuniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot hududida ma'dan qamrovchi magmatik yotqiziqlarning litologik-strukturaviy xususiyatlarini va yotish sharoitlarini o'rganish;

Tadqiqot hududidagi tog' jinslarida asosiy va hamroh elementlar tarqalishining geokimyoviy xususiyatlari hamda mis ma'danlashuvini izlashda asosiy indikator elementlarni aniqlash;

Shaugaz - Kondir soylar oralag'idagi mis ma'danlashuvining geokimyoviy zonalligini aniqlash va modelini yaratish;

Hududning geologik tuzilishini o'rganish hamda istiqbolli maydonlarni bashoratlash maqsadida ma'dan joylashuvida yetakchi omillarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Olmaliq tog'-kon hududidagi Shaugaz - Kondir soylar oralag'idagi minerallasgan zonalar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Shaugaz - Kondir soylar oralag'idagi mis ma'dani, minerallar, kimoviy elementlar, tog' jinslari hamda yer yoriqlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda an'anaviy usullar, jumladan geologik marshrutlar o'tish, geologik xaritalash, litologik, mineralogik va strukturaviy-litologik kesmalarni tuzish, mufassal geologik kuzatuv nuqtalari, namunalash kabi dala geologik ishlar majmuasi, zamonaviy yuqori aniqlikdagi analitik tadqiqotlar (mass-spektrometr ICP-MS, Superprobe JXA-8800R rentgen-mikrozondi va b.) shuningdek, to'plangan geologik materiallarni nazariy umumlashtirish usullaridan

foydalanilgan. Laboratoriyada olingan ma'lumotlarni kameral sharoitda umumlashtirishda ArcGIS, CorelDRAW, Surfer va Excel kabi litsenziyalangan dasturiy ta'minotlar hamda ishlov berilgan matematik statistika va tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlilini o'zida jamlagan uslublar majmuasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mis ma'danlashuvining joylashuvida shimoli-sharqiy yo'nalishdagi faol tektonik yer yoriqlari tizimidagi darzlangan zonalarga bog'liqligi strukturaviy omil sifatida qayd etilgan;

Shaugaz-Kondir soylar oralig'idagi tog' jinslari va ma'danlarda asosiy elementlarning o'zaro bog'liqligi aniqlangan hamda mis ma'danlashuvini izlashda molibden, qo'rg'oshin, rux, oltin elementlarining indikatorlik ahamiyati belgilangan;

Mis ma'danlashuvi uchun ma'dan osti zonasi uchun Co, Ni, Bi, Mo, Re, W₁, Sn, As₁, Cu₁, ma'danli zona uchun Cu₂, W₂, Pb, Zn, Au, Ag hamda ma'dan usti zonasi uchun Cu₃, Ag, As₂, Sb, Hg indikator elementlarning vertikal zonalligi ajratish asosida mis ma'danlashuvining geokimyoviy modeli ishlab chiqilgan;

Tadqiqot olib borishda hududdagi mis-ma'danlashuv sharoitlarini nazorat qiluvchi strukturaviy, magmatik, litologik omillar asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot hududida mis ma'danlashuvining geologik-strukturaviy va mineralogik-geokimyoviy qidiruv belgilari ishlab chiqilgan;

mis ma'danlashuvining tarqalish qonuniyatlarini o'rganish ular uchun qulay bo'lgan geologik-strukturaviy pozitsiyalar aniqlangan;

intensiv metasomatik o'zgarishlar tufayli vertikal zonalli minerallashuv kuzatilib, bunda chuqurlik ortib borishi sari mis va molibden minerallashuvning ko'payishi aniqlangan:

Shaugaz-Kondir soylar oralig'ida mis ma'danlashuviga istiqbolli maydonlar ajratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi an'anaviy usullar bilan birga zamonaviy mineralogik, geokimyoviy va matematik usullar qo'llanilganlida aks etadi. Jumladan jins hosil qiluvchi, aksessor va ma'danli minerallarning uchrash shakllari va moddiy tarkiblari "Nikon ECLIPSE LV100N POL" mikroskopi hamda "JXA-8800R Superprobe" elektron-mikroanalizatorida aniqlangan. Shuningdek natijalar majmuaviy dala va laboratoriya tadqiqotlari materiallariga asoslangan: strukturaviy-litologik (2500 m), mineralogik-geokimyoviy kesmalar (3200 m) o'tilgan, geologik marshrutlar (50 km), 50 ta batafsil geologik kuzatuv nuqtalari tavsiflangan, 150 ta mass-spektrometrik tahlillar 2000 dan ortiq yarim miqdoriy spektral tahlil bajarilgan, 50 ta shaffof shliflarda minerallar va tog' jinslarning xususiyatlari o'rganilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ma'lumotlar Shaugaz-Kondir soylar oralig'idagi mis ma'danlashuvining mahsuldor uyushmalari, mineral tarkibi, ma'danlarning geokimyoviy xususiyatlari hamda ma'dan nazorat qiluvchi omillari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati aniqlangan ma'danlashuvning geologik-strukturaviy omillari Shaugaz-Kondir soylar oralig'idagi mis ma'danlashuvi maydoni hamda unga chegaradosh hududlardagi granodiorit, metasomatik tog' jinslari tarqalgan hududlarda yangi mis konlarni izlab-topish samaradorligini oshishiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shaugaz-Kondir soylar oralig'idagi mis ma'danlashuvining joylashish qonuniyatini o'rganish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Shaugaz-Kondir soylar oralig'ida tarqalgan magmatik va metasomatik tog' jinslari va ular bilan bog'liq mis ma'danlashuvining moddiy tarkibi bo'yicha olingan mineralogik-geokimyoviy ma'lumotlar "O'zbek geologiya qidiruv" AJ faoliyatiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 5-avgustdagi 08-2858-son ma'lumotnomasi). Natijada, Sharqiy Olmaliq tog' kon hududida mis ma'danlashuvining istiqbolini baholash va geologiya qidiruv ishlari samardorligini oshirish imkonini bergan;

mis ma'danlashuvini qidirish uchun molibden, qo'rg'oshin, rux va oltin hamroh elementlarning indikatorlik roli bo'yicha olingan ma'lumotlar "O'zbek geologiya qidiruv" AJ faoliyatiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 5-avgustdagi 08-2858-son ma'lumotnomasi). Natijada, Sharqiy Olmaliq tog'-kon hududida geologiya qidiruv ishlarini reshashtirishda mis ma'danlashuviga istiqbolli maydonlarni ajratish imkonini bergan;

mis ma'danlashuvining qulay geologik-strukturaviy sharoitda joylashuvining vertikal va gorizontal zonallik modeli "O'zbek geologiya qidiruv" AJ faoliyatiga joriy qilingan (Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 5-avgustdagi 08-2858-son ma'lumotnomasi). Natijada, mis va molibdenni chuqurlikda qazib olish xarakterini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shu jumladan, respublika nashrlarida 3 ta va xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 bet, 23 ta jadval va 64 ta rasmdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari asoslangan, tadqiqot obyektlari va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yunalishlariga muvofiqligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilib, tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Hududni geologik o‘rganilganlik darajasi va hozirgi kundagi holati”** deb nomlangan birinchi bobida Qurama tog‘ tizmasining Shimoliy yon bag‘rida joylashgan Olmaliq ma‘danli maydonining geologik o‘rganilganligi keltirib o‘tilgan. Olmaliq hududidagi foydali qazilmalardan insonlar qadimdan foydalanib kelishgan, chunki hududda o‘nlab qadimgi tog‘-kon ishlanmalari aniqlangan.

Ushbu belgilardan olingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki Qolmaqir, Oqturpoq, Ungirlikon, Biryuza va boshqa konlardan oltin, mis va qimmatbaho bezak toshlardan feruza qazib olingan.

Dastlabki geologik ma‘lumotlar 1875-yillarda G.D.Romonovski tomonidan bajarilgan bo‘lib, unda geologiya, foydali qazilmalar haqida so‘z yuritiladi. Keyinchalik hudud geologiyasi bilan I.V.Mushketov (1875-1878) shug‘ullangan.

Qurama tog‘ tizmasining Shimoliy yon bag‘irida tizimli ravishda o‘rganish ishlari 1925-1926-yillardan boshlangan bo‘lib S.F.Mashkovsev, N.A.Seversev, V.N.Veber, A.S.Adelung, M.G.Kalabin kabi olimlar faoliyati bilan uzviy bog‘liq.

Olmaliq ma‘dan maydoni geologik tuzilishini batafsil o‘rganish va ma‘dan istiqbollarini aniqlash maqsadida I.B.Fedorov 1953-yilda olib borilgan ishlar natijasida 280 km² maydon uchun 1:10000 miqyosida geologik xaritasini tuzgan. 1:10000 miqyosidagi geologik xaritada mis va qo‘rg‘oshinning juda ko‘p miqdordagi rudalar paydo bo‘lishi bashorat qilingan va istiqbolli hududlar aniqlangan.

1955-1957-yillarda Yu.S.Shixin, J.N.Kuznetsov, V.A.Arapov Z.P.Artemova, 1956-1958-yillarda N.N.Nizametdinxodjaev boshchiligida 1:25000 miqyosida qidiruv ishlarini olib borilgan. 1960-1963-yillarda Olmaliq geologiya-qidiruv boshqarmasining tematik partiyasi Olmaliq ma‘danli mintaqasining 1:25000 miqyosida bashoratlash xaritasini tuzish bo‘yicha tematik ishlarni olib borgan.

1974-yili N.N.Nizametdinxodjaev, I.I.Dabiji, E.D.Molchanov, E.V.Manko, 1975-yillarda A.A.Kulakov, V.V.Neverov, 1980-yilda V.D.Guryanov, X.T.Tulyaganov, E.I.Nikolaeva, A.A.Kustarnikova, B.B.Vasilevskiy, A.X.Turesebekov V.D.Soy, I.N.Ganiyev, 2005-yilda V.I.Vokal, 2016-yilda A.V.Golovko, E.V.Ganiyeva va boshqalar tomonidan hududida oltin, mis, molibden ma‘danlashuviga asoslangan geologik qidiruv ishlari olib borilgan.

Dissertatsiyaning **“Shaugaz-Kondir soylar oralig‘ining geologik tuzilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida hududning stratigrafiyasi, magmatik hosilalari va tektonikasining tavsiflari keltirilgan. Hudud uchta strukturaviy qavatga bo‘lib o‘rganilgan (1-rasm).


I-quyi strukturaviy qavat O-D₁, o‘z navbatida quyi strukturaviy qavat: quyi strukturaviy yarus Sardob svitasi qumtosh-slanetsli qatlamlari (O-S), yuqori strukturaviy yarus katranga va qalqonota svitalari vulkanogen andezit porfiritli jinslari (D₁¹), kvarsli porfir (D₁²), andezidatsitli porfiritlar va ularning tuflari (D₁³) dan tashkil topgan.

II-o‘rta strukturaviy qavat (D₂-P₁), o‘z navbatida o‘rta strukturaviy qavat: quyi strukturaviy yarus (D₂-C₁): arkozli-konglomeratlar (D₂-gv₁), qumli-konglomeratlar (D₂-gv₂), ohaktosh-mergeli jinslar (D₃fr), dolomitlar (D₃fr₂₋₃), dolomitlar (D₃fm),

ohaktosh qatlamlari (C_{1t}), ohaktosh qatlamlari (C_{1v}), yuqori strukturaviy yarus (C_2-P_1).

Minbuloq svitasining quyi qismi (C_{2mb_1}) Urgaz va Sovuqbuloq daryolarining o'rtta oqimida rivojlangan. Minbuloq svitasi (C_{2mb}) bazaltlar, traxibazaltlar, traxiandezibazaltlar, andezibazaltlar, traxiandezitlar, andezitlar, kamdan-kam traxitlar, kvarslı traxit va ularning tuflari, traxiandezidatsitlar, traxidatsitlar, rioidatsitlar, traxiriolitlar, datsitlar, riolitlar, traxirioidatsitlar, ularning tuflari va ignimbritlar bilan taqdim etilgan tarkibiga ko'ra juda ham turlicha bo'lgan vulkanogen hosilalardan tashkil topgan.

(C_{2ak_2}) akcha svitasi – andezitli va bazaltli porfirritlar, andezidatsitli porfirritlar va ularning tuflari, piroklastik va cho'kindi jinslarning takrorlanuvchi qatlamlaridan tashkil topgan.



1-rasm. Olmaliq ma'dan maydonining geologik-strukturaviy xaritasi. Miqyos 1:25000. A.A. Kulakov va b. materiallari asosida raqamli ko'rinishga keltirilgan X.X.Xaliyev 2019 y.

1- to'rtlamchi davr yotqiziqlari, 2- go'shsoy turidagi mayda donali granodiorit-porfir, 3- go'shsoy turidagi o'rtta donali granodiorit-porfir, 4- go'shsoy turidagi yirik donali granodiorit-porfir, 5- kuyundi turidagi granodiorit-porfir, 6- granit-porfir, 7- siyenit-porfir, 8- granit-porfir, 9- qurama turidagi granodioritlar, 10- andezit va andezibazalt tarkibli rogovayaobmankali va piroksenli porfirritlar, lavalar, lavobrekchiyalar, andezitli porfirritlarning tuflari, 11- lavalar, lavobrekchiyalar, tuflar va cho'kindi-piroklastik jinslar biotit-rogovayaobmankali, andezidatsit va andezitli porfirritlar, 12- vulqon alevrolitlari, qumtoshlari, gravilitlari, konglomeratlari, 13-tuflar va tufolavalar, andezidatsit porfirritlari, 14- ohaktoshlar, 15- ohaktoshlar va dolomitlar, 16- ohaktoshlar, 17- kvarslı porfirritlar va ularning tuflari, 18- ma'dan namoyonlari: 1-misli, 2 - vismutli, 3 - oltin ma'danli, 4 - molibdenli, 19 - ma'dan namoyonlari: 5 - feruza, 6 - qo'rg'oshin-ruxli, 7 - alunitli.


III-yuqori strukturaviy qavat (Mz-Kz): Ish maydonida yuqori strukturaviy qavatning shakllanishi unchalik keng tarqalmagan. Ular orasida yuqori bo‘r, paleogen va to‘rtlamchi davr yotqiziqlari ajralib turadi.

Hududning sharqiy qismida bo‘r va paleogen davr yotqiziqlari saqlanib qolgan. Yuqori bo‘r yotqiziqlari qizil rangli qumtoshlar bilan ifodalanadi.

Olmalik ma‘danli maydonining o‘rganish tarixi shuni ko‘rsatadiki, ushbu hududdagi tog‘ jinslari bir necha tektogenez davrlari bilan xarakterlanuvchi ko‘p karrali o‘zgarishlarni boshdan kechirgan.

Hududda kaledon, gertsin va alp davrlari bilan bog‘liq bo‘lgan tektonik harakatlar kuzatiladi. Bu davrlarda tektonik harakatlar natijasida turli miqyosli burmalar va yer yoriqlari shakllangan.

Tadqiqot hududidagi Qirqqiz-mis, Radnikoviy, Svinsoviy, Tutli, Kulda, Ungirlikan va boshqa ma‘dan namoyandalarida olib borilgan qidiruv ishlarining keng qamrovli materiallari tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasi turli xil tartibdagi tektonik strukturalarning muayyan turlari bilan cheklangan (2-rasm).



2-rasm. Tadqiqot maydonining tektonik sxematik xaritasi. I.B.Fyodorov, N.B.Volfson, Ye.V.Ganiyeva va boshqalar materiallari asosida tuzildi.

Ma‘danli zonalar strukturaviy buzilma zonalar tomonidan qator holatlarda bo‘laklanadi, ba‘zan esa nazorat qilinishi aniqlangan. Umuman olganda, ma‘danli zonalar ko‘p yo‘nalishli yer yoriqlarining ta‘siri va kesishish nuqtalari atrofida joylashganligini hisobga olsak, bu uni bashorat qilishda hal qiluvchi omillardan biri

bo‘lib, ma‘dan qamrovchi qatlamlardagi dislokatsiya belgilarini o‘rganish muhim hisoblanadi.

Hududda yirik tektonik-strukturalarga birinchi darajali Qurama antiklinali hisoblanadi, uning qanotlarida kichik antiklinal va sinklinallar shimoliy-g‘arb tomon cho‘zilgan holda joylashgan. Olmaliq hududida keng doirada yer yoriqlari rivojlangan bo‘lib, turli xil strukturalar holida blok-blok bo‘lib joylashgan.

Chiziqli tipdagi tuzilmalar orasida submeridional, shimoli-g‘arbiy yo‘nalishdagi aktiv faollik va o‘tkazuvchanlik zonalari hamda yuqori o‘tkazuvchanlik zonalari boshqa strukturalar bilan o‘zaro kesishish tugunlari ma‘dan hosil bo‘lishida muhim ahamiyatga ega.

Hududda ajratilgan bloklar bulardan birinchi blok - shimoliy Burgundi yer yoriqlari o‘rtasida joylashgan, markaziy blok esa Miskon va Kolbulak yer yoriqlari o‘rtalarida hamda, janubiy blok esa Kulbuloq yer yorig‘ining janubiy qismida joylashgan.

Tadqiqot maydonida Yakkabog‘, Katta soy, Temirli, Qirqqiz, Lashkerak, Kulta, Karaltepa, Agalma va boshqa yer yoriqlari rivojlangan. Yuqorida tilga olingan yer yoriqlari natijasida hududda ko‘plab konlar, ma‘dan namoyonlari va ma‘danli zonalarning hosil bo‘lishida ro‘li katta ekanligini ko‘rsatadi.

Shaugaz-Kondir soy oralig‘idagi tog‘ jinslarida ma‘danli minerallar tarkib jihatidan unchalik katta xilma-xillikga ega emas. Ma‘danlarda makroskopik jihatdan asosan bir xil gipergen va gipogen minerallar ajralib turadi (1-jadval).

1-jadval


Shaugaz-Kondir soylar oralig‘idagi tog‘ jinslarida metasomatik o‘zgarishlar (Xaliyov X.X., 2024)

Tog‘ jinslari	Qamrovchi jinslarning o‘zgarishi	Metasomatit minerallari	Ma‘dan hosil qiluvchi minerallar	Ma‘dan hosil qiluvchi elementlar	Korrelyatsion elementlar	Mineral assotsiatsiya
Karbonatli tog‘ jinslari	Skarnlashish, baritlashish	Epidot, amfibol, granat, piroksen, karbonatlar	Sof vismut, molibdenit, xalkopirit, galenit, sfalerit	Pb-Zn-As-Sn-Bi-W-V-Mo-Ag-Cu	Cu-As-Zn-W-Sn-Mo-Pb	Galenit-sfalerit-xalkopirit-sof vismut
Andezitlar	Propilitlashish, xloritlashish	Epidot, xlorit, seritsit, albit, kvars, karbonat, angidrit	Sof vismut, molibdenit, pirit, magnetit	Ag-Pb-Cu-Mo-Bi-Zn-W-As-V	Cu-Ag-Mo-Zn	Xalkopirit-galenit-molibdenit
Metasomatik	Kvarlashish, dalashpatitlashish, seritsitlashish, xloritlashish, kaolinlashish	Kvars, ortoklaz, xlorit, seritsit	Sof vismut, molibdenit, xalkopirit	Ag-Pb-Cu-Mo-As-V-Zn-Bi-W	Cu-Zn-Ag-Pb-W	Xalkopirit-galenit, molibdenit-pirit
Grano-dioritlar	Berizitlashish, seritsitlashish, piritlashish, kvarlashish, ikkilamchi kvarsitlar	Seritsit, kvars, karbonat, angidrit, pirit, kaolinit, diaspor, alunite	Sof vismut, xalkopirit, pirit, elektrum, molibdenit, xira ma‘dan	Bi-Au-Cu-Ag-As-Re-Mo-W-Pb-Zn-Sn	Cu-Ag-Au-Bi-Se-Pb	Sof vismut - pirit-xalkopirit-sfalerit-galenit- xira ma‘dan

Misning eng yuqori konsentratsiyasi asosan xalkopirit, bornit, pirit minerallari bilan bog‘liq bo‘lib, oksidlanish zonasida malaxit, azurit, kuprit, feruza, siderit ba‘zan gyotit va gidrogyotit bilan bog‘liq (3-rasm).

Tadqiqot hududi birlamchi ma‘danlari asosan xalkopirit, xalkozin, kovellin, bornit, molibdenit, pirit, sof tug‘ma vismut, ikkinchi darajali ma‘danli minerallardan galenit, sfalerit, xira ma‘danlardan iborat.

Tektonik deformatsiya jarayonida (siqilish va siljish strukturalarida) Shaugaz-Kondir soylar oralig‘idagi shimoliy-g‘arbiy chiziqli yoriqlar yelpig‘ichsimon darzliklar hosil qilgan va ular oltin-mis-porfirli ma‘danlashuviga uchun qulay sharoit hisoblanadi.




3-rasm. a) Briket. 5/1. 1-xalkopirit, 2-xalkozin, 3-kovellin. Nikon ECLIPSE LV100N POL. 10x. b) P5/9. 1-pirit, 2-xalkopirit. Nikon ECLIPSE LV100N POL. 20x. v) 1-pirit, 2-xalkopirit. Nikon ECLIPSE LV100N POL. 20x. s) 11/14. 1-pirit, 2-xalkopirit, 3-temir gidrooksidi Nikon ECLIPSE LV100N POL. 20x

Uchinchi bob “**Geokimyoviy izlash va baholash mezonlari**” deb nomlanib Shaugaz-Kondir soylar oralig‘idagi mis, molibden, oltin elementlari oreollari, ma‘danlashuvi va vertikal zonaligi, tog‘ jinslaridagi asosiy va hamroh elementlarning tarqalish xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Birlamchi geokimyoviy ishlarini olib borishda namunalash katta ahamiyatga ega, shuning uchun sinalgan va ko‘p hollarda o‘zini mahsuldorligi bilan amaliy ahamiyati bilan natijador bo‘lgan Grigoryan (1968), Beus (1975), Razikov va boshqalar (1987) tomonidan ishlab chiqargan uslubdan foydalandik. Birlamchi oreollarning shakli geologik va strukturaviy omillar bilan belgilanadi (4-rasm).

Endogen yotqiziqlar uchun bu asosan yer yoriqlari zonalarining shakllari, yo‘nalishlari va tog‘ jinslarining g‘ovakliligi bilan belgilanadi. Ko‘pgina hollarda, birlamchi oreollar ma‘dan tanalariga mos ravishda rivojlanadi. Bu holat ma‘dan jismlari uchun ham to‘g‘ri keladi.

Mis elementi o‘rganilayotgan hududimizning shimoliy, janub-janubiy-sharqiy va qisman g‘arbiy qismlarda keng tarqalganini hamda mis asosan granodiorit-porfir



4-rasm. Hududda tarqalgan Mo, Cu, Bi, Au elementlarining birlamchi oreollari.
Tuzuvchi: X.X.Xaliyev 2024-yil. 4-rasm. 1-siyenit-porfir, 2-ma'dan maydoni, 3- ma'danli tugun, 4- yer yorig'i, 5- granodiorit, 6- nordon effuziv jinslar, 7-maydalangan vulkanik jinslar, 8-metasomatitlar, 9-ohaktoshlar, 10- granodiorit-porfirlar, 11- siyenitlar, siyenodioritlar, 12-siljish, 13-16 elementlarning tarqalish oreollari: 13-Au, 14-Bi, 15-Cu, 16-Mo, 17-ma'dan namoyonlari, 18-istiqbollay maydon.


va ularning metasomatik o'zgargan jinslari hamda nordon effuziv jinslar bilan o'zaro bog'liqligi aniqlangan.

Olingan natijalar asosida hududda molibden elementining tarqalish oreollari ishlab chiqildi. Bunga ko'ra molibden ish olib borilgan hududning shimol-shimoliy-g'arbiy hamda janubiy qismlarda ko'proq tarqalganligini ko'rishimiz mumkin. Molibden asosan granodiorit, granodiorit-porfiralar, siyenit va kam hollarda metasomatik o'zgargan tog' jinslari bilan bog'liqligini ko'ramiz.

Vismut elementi ish olib borayotgan hududimizning shimoliy hamda janubiy va qisman g'arbiy qismlarda o'lcham jihatidan maydaroq tarqalish oreollarini hosil qiladi. Vismut elementi asosan granodiorit-porfirning metasomatik o'zgargan jinslari bilan o'zaro bog'liqligi aniqlangan.

Oltin elementi o'rganilayotgan hududimizning shimoliy va janubiy-sharqiy qismlarda kattaroq o'lchamda birlamchi tarqalish oreollarini hosil qilganini, janub va janubiy-g'arbda esa nisbatan maydaroq tarqalish oreollarini hosil qiladi. Oltin elementi asosan granodiorit-porfir va ularning metasomatik o'zgargan jinslari bilan o'zaro bog'liqligi aniqlangan.

Birlamchi geokimyoviy oreollarni erozion qirqimidagi sxematik tuzilish modelini ishlab chiqishda hududda o'tqazilgan burg'ulash ishlaridan olingan namunalardagi kimyoviy elementlarning chuqurlikka tushgan sari miqdorlarining oshib borishini kuzatdik va yuqorida keltirilgan vertikal zonallikning sxematik modelini tuzdik (5-rasm).



5-rasm. Birlamchi geokimyoviy oreollarni erozion qirqimidagi sxematik tuzilish modeli. Tuzuvchi: X.X.Xaliyev 2024-yil.


Ushbu modelni tuzishda A.P.Solovov, S.V.Grigoryan, I.N.Ovchinnikov kabi olimlarning ishlari va Qolmaqir konining vertikal zonalliklarini namuna sifatida

oldik. Ushbu model asosan gidrotermal sulfidli konlarda ma'danlashuvning pastdan yuqoriga qarab nisbatan solishtirma og'irligi yuqori bo'lgan elementlar minerallarining ketma ket joylashishini tushuntiradi.

Tadqiqot hududida magmatik hosilalar asosan turli yoshdagi magmatik tog' jinslaridan iborat. Olmaliq turidagi dioritlar (δC_2), Olmaliq turidagi siyenodioritlar ($\varepsilon \delta C_2$), Qurama turidagi granodioritlar ($\gamma \delta C_2$), qizilsoy turidagi granodioritlar ($\gamma \delta C_2$), kvars porfirsimon siyenodioritlar, dioritlar ($q\varepsilon \delta C_3$), siyenit-porfirlar, felzit-porfirlar ($\varepsilon \pi C_3$), granitli porfirlar, kvarsli porfirlar ($\gamma \pi C_3$), kuyundi turidagi granodiorit porfirlar ($\gamma \delta \pi C_3-P_{1(1)}$), granit porfirlar ($\gamma \pi C_3-P_{1(1)}$), go'shsay turidagi yirik donali granodiorit porfirlar ($\gamma \delta \pi C_3-P_{1(2)}$), go'shsay turidagi o'rta donali granodiorit porfirlar ($\gamma \delta \pi C_3-P_{1(3)}$), go'shsay turidagi mayda donali granodiorit porfirlar ($\gamma \delta \pi C_3-P_{1(4)}$), siyenodiorit-porfirlar, siyenodioritlar (C_3-P_1). Hududda turli tarkibli daykalar keng tarqalgan: siyenodiorit-porfirlar, siyenit-porfirlar, granosiyenit-porfirlar, granodiorit-porfirlar, granit-porfirlar, kvarsli-porfirlar, felzit-porfirlar, dioritli-porfirlar va diabazli porfirlar.

Granodiorit tog' jinslarida mis kumush (0.89), oltin (0.79), vismut (0.79), selen (0.71), qo'rg'oshin (0.43) elementlari bilan kuchli ijobiy korrelyatsion bog'liqlik hosil qiladi ($R_k-0.17$) mis molibden (0.29), surma (0.12), qalay (0.07), margimush (0.05) elementlari bilan kuchsiz ijobiy bog'lanish hosil qiladi aksincha mis volfram (-0.02), tellur (-0.08), rux (-0.10), reniy (-0.31) elementlari bilan salbiy korrelyatsion bog'liqlik hosil qilgan (6-rasm).

Metasomatit tog' jinslarida mis rux (0.47), kumush (0.46), qo'rg'oshin (0.38) va volfram (0.35) elementlari bilan kuchli ijobiy korrelyatsion bog'liqlik hosil qiladi ($R_k-0.06$) aksincha mis margimush (0.23), vismut (0.21), molibden (0.19), vanadiy (0.01) elementlari bilan kuchsiz ijobiy bog'lanish hosil qilgan (6-rasm).



6-rasm. Shaugaz-Kondir soylar oralig'ida tarqalgan tog' jinslarida misning hamroh elementlar bilan korrelyatsiyasining gistogrammasi

Andezit tog' jinslarida molibden kumush (0.41), mis (0.39) elementlari bilan kuchli ijobiy korrelyatsion bog'liqlik hosil qiladi ($R_k-0.07$) molibden rux (0.34), vismut (0.30) volfram (0.21), qo'rg'oshin (0.04) elementlari bilan kuchsiz ijobiy

bog‘lanish hosil qiladi aksincha molibden margimush (-0.13), vanadiy (-0.32) elementlari bilan salbiy korrelyatsion bog‘liqlik hosil qilgan.

Ohaktosh tog‘ jinslarida mis margimush (0.69), rux (0.66), volfram (0.57), qalay (0.56), molibden (0.52), qo‘rg‘oshin (0.46), bilan kuchli ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik hosil qiladi (Rk-0.2) aksincha mis kumush (0.23), vismut (0.21) elementlari bilan kuchsiz ijobiy bog‘lanish hosil qilgan.

To‘rtinchi bob **“Mis ma‘danlarining joylashish qonuniyatlari va ma‘danlashuvni nazorat qiluvchi omillar”** deb nomlangan.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida Shaugaz-Kondir soylar oralig‘idagi mis ma‘danlashuvining izlash belgilari aniqlandi.

Magmatik belgilar. Shaugaz-Kondir soylar oralig‘ida magmatik hosilalar asosan turli yoshdagi magmatik tog‘ jinslaridan iborat. Ularning tarkibi Olmaliq turidagi dioritlar (δC_2), Olmaliq turidagi siyenodioritlar ($\varepsilon \delta C_2$), Qurama turidagi granodioritlar ($\gamma \delta C_2$), qizilsoy turidagi granodioritlar ($\gamma \delta C_2$), kvars porfirsimon siyenodioritlar, dioritlar ($q\varepsilon \delta C_3$), siyenit-porfirlar ($\varepsilon \pi C_3$), granitli porfirlar, kvarsli porfirlar ($\gamma \pi C_3$), kuyundi turidagi granodiorit porfirlar ($\gamma \delta \pi C_3-P_{1(1)}$), granit porfirlar ($\gamma \pi C_3-P_{1(1)}$), go‘shsay turidagi yirik, o‘rta va mayda donali granodiorit porfirlar ($\gamma \delta \pi C_3-P_{1(2)}$), siyenodiorit-porfirlar, siyenodioritlar (C_3-P_1).

Hududda turli tarkibli daykalar keng tarqalgan: siyenodiorit-porfirlar, siyenit-porfirlar, granosiyenit-porfirlar, granodiorit-porfirlar, granit-porfirlar, kvarsli-porfirlar, dioritli-porfirlar, diabazli porfirlar ajratiladi.

Tadqiqot hududida mis, molibden, oltin, vismut elementlarining muayyanlanishiga eng mos jinslar go‘shsay turidagi granodiorit-porfirlar, granodioritlar va ularning metasomatik o‘zgarigan jinslari hisoblanadi. Sharqiy Olmaliq maydonida Shlakovoe polya, Shaugaz, Yong‘oqli ma‘dan namoyonlari Kuyundi kompleksi bilan bog‘liq bo‘lib, u yerda granit-porfir va granodiorit-porfir ko‘rinishidagi shtok shaklidagi jinslar mavjud. Ushbu hududda volfram-molibden konlari shtokverk va tomir turdagi mineralizatsiya bilan bog‘liqdir.

Gidrotermal-metasomatik belgilar. Ma‘dan nazorat qiluvchi qatlamlararo uzilishlarda gidrotermal o‘zgarishlar karbonatli, o‘rta va nordon tarkibli jinslarni qamrab oladi. Tadqiqot hududidagi karbonatli jinslarning kontakt zonasida metasomatik kvarslanish, karbonatlanish, skarnlashish va argillitlanish kuzatiladi. O‘rta va nordon tarkibli jinslarni gidrotermal o‘zgarishi ikkilamchi kvarsitlar, kvarslanish, seritsitlashish, piritlashish, berizitlashish, xloritlashish va juda kam turmalinlashishlardan iborat.

Mineralogik-geokimyoviy belgilar. Mineralogik belgilarni o‘rganishda asosiy e’tibor tipomorf xususiyatlarni aniqlashga qaratildi, ulardan misni genetik turini aniqlashda va mis minerallashuvini shakllanish sharoitini baholashda foydalanish mumkin. Mis uchun asosiy mahsuldor mineral uyushmalar tadqiqot hududida xalkopirit-pirit-galenit-molibdenitli minerallashuvdir. Mineralogik belgilari bo‘yicha xalkopirit-pirit-galenit-molibdenitli ma‘danli namoyonlarda sulfidlar (xalkopirit, bornit, molibdenit, pirit va boshqalar) asosan mis minerallari hisoblanadi. Shaugaz-Kondir soylar oralig‘ida mis ma‘danli namoyonlarining

geokimyoviy tahlilining ko'rsatishicha, misning asosiy yo'ldoshlari Bi-Mo-Au-Pb-Ag-As-Re-W-Zn-Sn lar bo'lib, ular o'rganilgan maydon uchun xos.

Hududda quyidagi *geokimyoviy belgilarni* ajratish mumkin:

- ma'danlashuv tarkibidagi mis tarqalishining miqdoriy ko'rsatkichlari Mo, Pb, Ag, Au va Bi elementlari bilan, kumushniki esa - Au, Bi, Pb, Mo va Cu bilan diqqatga sazovor va barqaror ijobiy korrelyatsion aloqadorlik kasb etgan;

- ma'danlashuv zonalarida Bi, Au, Cu, Ag va As miqdoriy ko'rsatkichlari yuqori.

XULOSA

Tadqiqotlarning natijalari asosida quyidagi asosiy xulosalarni keltirish mumkin:

1. Shaugaz-Kondir soylar oralig'idagi ma'danli obyektlar bo'yicha geologik materiallar tahlili mis, oltin, volfram, kumush, vismut va boshqa metallar konsentratsiyalarining hosil bo'lishida gertsin davriga mansub granitoid magmatizmining yetakchi rolini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, o'rganilayotgan maydon mis, molibden, oltin konlari ma'dan-formatsion tizimiga taalluqliligi ma'dan qamrovchi muhit magmatik va metasomatik o'zgarishi bilan bog'liqligi izohlanadi.

2. Ma'danlar bir nechta mineralogik uyushmalar bilan bog'liq bo'lib, ulardan mahsuldor uyushmalar sifatida birlamchi ma'danlarda xalkopirit-pirit-galenit-molibdenitli uyushmalar ajratilgan.

3. Mineralogik-geokimyoviy izlash-bashoratlash majmuasi yordamida mis, molibden ma'danlashuvi chuqurlik sari o'zaro munosabatlari kuchayib borishi hamda gidrotermal jarayonlar mahsuli hisoblangan ma'danlarning vertikal zonalligi aniqlangan.

4. Hududda tog' jinslarida mis, kumush, vismut, oltin, molibden, margimush kabi elementlarning yuqori klark konsentratsiya darajasi aniqlangan, hamda turli xil tog' jinslari va ma'danlarda misning miqdoriy ko'rsatkichlari kumush, oltin, vismut, qo'rg'oshin, margimush elementlari bilan, oltinniki vismut, qo'rg'oshin, kumush, molibden kabi elementlar bilan nisbatan kuchli ijobiy bog'lanish hosil qilganligi hududdagi ma'danlarni bashoratlash-qidiruv ishlarida ishonchli geokimyoviy belgi sifatida qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

5. Asosiy ma'dan nazorat qiluvchi omil sifatida strukturaviy omil, shimoliy-sharqiy yo'nalishli tektonik-jihatdan zaiflashgan, intensiv maydalangan va o'zgargan zonalar aniqlangan. Ko'p hollarda, ular bilan birga magmatik (o'rta va nordon tarkibli jinslar va ularning metsomatik o'zgarish zonalar), gidrotermal (kvars tomirli tanalar va tomirchali zonalar) va litologik (go'shsay, kuyundi turidagi granodiorit porfirilar ($\gamma\delta\pi C_3-P_{1(1)}$)) omillar ham namoyon bo'lgan. Ushbu omillar qidiruv ishlari va bashoratlash mezonlari sifatida tavsiya etilishi mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.24/30.12.2019.GM.40.01.
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ГУ «ИНСТИТУТ МИНЕРАЛЬНЫХ РЕСУРСОВ»**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ХАЛИЁРОВ ХОЛМУРОД ХАЛМИРЗАЕВИЧ

**ЗАКОНОМЕРНОСТИ РАЗМЕЩЕНИЯ МЕДНОГО ОРУДЕНЕНИЯ
МЕЖДУ САЯМИ ШАУГАЗ-КАНДЫР (ВОСТОЧНО-АЛМАЛЫКСКИЙ
ГОРНОРУДНЫЙ РАЙОН)**

**04.00.02 – Геология, поиски и разведка месторождений твердых полезных
ископаемых. Металлогения и геохимия**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD)
ПО ГЕОЛОГО-МИНЕРАЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2024.2.PhD/GM222.

Докторская диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного Совета (www.ingco.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Разиков Одил Тахирджанович
доктор геолого-минералогических наук,
старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Мовланов Жахонгир Журабекович
доктор геолого-минералогических наук

Мирусманов Мирвосит Агзамович
кандидат геолого-минералогических наук

Ведущая организация:

АО «Узбекгеологоразведка»

Защита диссертации состоится «13» 11 2025 г. в 16⁰⁰ часов на заседании Научного совета Dsc.24/30.12.2019.GM.40.01. при Институте минеральных ресурсов, (Адрес: 100164, г. Ташкент, ул. Олимлар, 64. Тел.: (99871) 209-08-93; e-mail: info@mridm.uz, gpniimr@exat.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института минеральных ресурсов, (зарегистрирована за №3472). (Адрес: 100164, г. Ташкент, ул. Олимлар, 64. Тел.: (99871) 209-08-93.

Автореферат диссертации разослан «30» 10 2025 года.

(реестр протокола рассылки №23 от «08» 10 2025 года.)



М.У.Исоков

Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.г.-м.н.

С.С.Сайитов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению
ученых степеней, доктор философии (PhD) по г.-м.н.

М.М.Пирназаров

Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению ученой степени, д.г.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой практике медь является одним из основных металлов, пользующихся большим спросом в промышленности из-за своих уникальных свойств, поэтому поиск ее месторождений имеет большое значение. В этой связи определение условий и закономерностей формирования медных руд с использованием инновационных технологий и современных методов разведки полезных ископаемых имеет особо важное значение. Эти работы, в свою очередь, послужат основой для открытия новых месторождений меди, способных обеспечить потребности промышленности.

В настоящее время в развитых странах мира проводится множество научных исследований, направленных на выявление комплексных месторождений полезных ископаемых и различных типов рудных формаций. В частности, особое значение имеет изучение интрузивных образований, содержащих промышленные медные руды. Проводимые минералого-геохимические исследования с использованием современных и высокоточных аналитических методов дают возможность научно обосновать перспективы первичной и вторичной минерализации в этих породах.

В республике осуществляется ряд мероприятий по прогнозированию и поиску новых перспективных месторождений меди. В результате выявлены месторождения Ёшлик-I, Кизота-II и перспективные площади Шенибек, Ёнгокли, Сарытош. В стратегии действий Нового Узбекистана для дальнейшего развития Республики Узбекистан поставлены задачи «...расширения минерально-сырьевой базы, необходимой для экономики...»¹. В этой связи комплексное изучение добычи меди в районе между саями Шаугаз-Кандыр Алмалыкского горнорудного района имеет большое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной мере служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 г. № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан от 21 апреля 2021 года ПП-5083 «О дополнительных мерах по активному привлечению инвестиций в сферу геологии, трансформации предприятий отрасли и расширению минерально-сырьевой базы республики», от 08 июня 2020 года ПП-4740 «О мерах по организации деятельности Университета геологических наук в системе Государственного комитета Республики Узбекистан по геологии и минеральным ресурсам», от 3 августа 2022 г. № ПП-343 «О мерах по организации производства высокотехнологичных металлов на основе местного минерального сырья», а также ряда других нормативно-правовых документов, принятых в этой сфере.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-60 «О Новой Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 года».

технологии Республики – VIII «Науки о Земле (геология, геофизика, сейсмология и переработка минерального сырья)».

Степень изученности проблемы. Северные склоны Кураминского хребта систематически изучаются многими исследователями, в том числе: С.Ф.Машковцевым, Б.Н.Наследовым, А.С.Аделунгой, М.Г.Калабином, А.А.Петренко, В.К.Додином, З.П.Артемовым, Ю.С.Шихином, Ж.Н.Кузнецовым, Х.М.Абдуллаевым, И.Х.Хамрабаевым, Н.П.Васильковским, И.М.Головановым, В.А.Араповым, Т.Н.Далимовым, С.Т.Бадаловым, Т.Ш.Шаякубовым, В.И.Рехарским, Р.А.Мусиным, К.Урунбаевым, И.Б.Фёдоровым, Н.Н.Низаметдинходжаевым, В.В.Неверовым, Э.Д.Молчановым, А.А.Кулаковым, Ф.И.Исломовым, В.Д.Гурьяновым, Х.Т.Тулягановым, Э.И.Николаевой, В.Д.Ляшкевичем, А.А.Кустарниковой, А.Х.Туресебековым, И.Н.Ганиевым, В.Д.Цой, М.М.Пирназаровым, А.В.Головко, Е.В.Ганиевой и др.

